

ISSN 2181-7812



# TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

## ВЕСТНИК ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

“OLIV TIBBIY TA'LIM SIFATINI  
OSHIRISHDA ERISHILGAN YUTUQLAR VA  
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI”  
MAVZUSIDAGI XALQARO O'QUV-USLUBIY  
ANJUMANGABAG'ISHLANGAN  
**MAXSUS SON**

**2024**

TOSHKENT



*Выпуск набран и сверстан на компьютерном  
издательском комплексе*

*редакционно-издательского отдела  
Ташкентской медицинской академии*

*Начальник отдела: М. Н. Аслонов*

*Редактор русского текста: О.А. Козлова*

*Редактор узбекского текста: М.Г. Файзиева*

*Редактор английского текста: А.Х. Жураев*

*Компьютерная корректура: З.Т. Алюшева*

*Учредитель: Ташкентская медицинская академия*

*Издание зарегистрировано в Ташкентском Городском  
управлении печати и информации*

*Регистрационное свидетельство 02-00128*

*Журнал внесен в список, утвержденный приказом №  
201/3 от 30 декабря 2013года*

*реестром ВАК в раздел медицинских наук*

*Рукописи, оформленные в соответствии*

*с прилагаемыми правилами, просим направлять*

*по адресу: 100109, Ташкент, ул. Фароби, 2,*

*Главный учебный корпус ТМА,*

*4-й этаж, комната 444.*

*Контактный телефон: 214 90 64*

*e-mail: rio-tma@mail.ru*

*rio@tma.uz*

*Формат 60x84 1/8. Усл. печ. л. 9,75.*

*Гарнитура «Cambria».*

*Тираж 150.*

*Цена договорная.*

*Отпечатано на ризографе*

*редакционно-издательского отдела ТМА.*

*100109, Ташкент, ул. Фароби, 2.*

*Вестник ТМА 2023*

## **РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ**

**Главный редактор**

проф. А.К. Шадманов

**Заместитель главного редактора**

проф. О.Р.Тешаев

**Ответственный секретарь**

проф. Ф.Х.Иноятова

## **ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ**

акад. Аляви А.Л.

проф. Билалов Э.Н.

проф. Гадаев А.Г.

проф. Жае Вук Чои (Корея)

акад. Каримов Ш.И.

проф. Татьяна Силина (Украина)

акад. Курбанов Р.Д.

проф. Людмила Зуева (Россия)

проф. Метин Онерчи (Турция)

проф. Ми Юн (Корея)

акад. Назыров Ф.Г.

проф. Нажмутдинова Д.К.

проф. Саломова Ф.И.

проф. Саша Трескач (Германия)

проф. Шайхова Г.И.

## **Члены редакционноого совета**

проф. Акилов Ф.О. (Ташкент)

проф. Аллаева М.Д. (Ташкент)

проф. Хамдамов Б.З. (Бухара)

проф. Ирискулов Б.У. (Ташкент)

проф. Каримов М.Ш. (Ташкент)

проф. Маматкулов Б.М. (Ташкент)

проф. Охунов А.О. (Ташкент)

проф. Парпиева Н.Н. (Ташкент)

проф. Рахимбаева Г.С. (Ташкент)

проф. Хамраев А.А. (Ташкент)

проф. Холматова Б.Т. (Ташкент)

проф. Шагазатова Б.Х. (Ташкент)



Нишанова Ю.Х., Ходжамова Г.А., Исмаилова М.Х. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОБРАЗОВАНИЙ МАГИСТРАНТОВ КАФЕДРЫ «МЕДИЦИНСКОЙ РАДИОЛОГИИ» С ПУТЕМ ВОВЛЕЧЕНИЯ ИХ В ПРОЦЕСС	97
Nuruzova Z.A. TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH TALABALARNI SIFATLI TAYYORLASHDA MUHIM OMILDIR	98
Oxunova Marxabo Turdaliyevna, Mnajov Kuat Kuanishbaevich. REABILITLOGIYA FANINI O'QITISHDA INTEGRIRLASHGAN NAZARIY BILIMLAR VA AMALIY KO'NIKMALARNI SINGDIRISH	98
Парпиева Н.Н., Ходжаева М.И., Каюмова С.С., Онгарбаев Д.О. ЗНАЧЕНИЕ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ ПРИМЕНЕНИЯ НОВЫХ МЕТОДОВ ДИАГНОСТИКИ ТУБЕРКУЛЕЗА-КВАНТИФЕРОНОВЫЙ ТЕСТ (QUANTIFERON®-TB GOLD IT)	99
Пуллатов Хабибулла Хайруллаевич, Хамраев Фаррух Журакулугли. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ	99
Пуллатов Хабибулла Хайруллаевич, Зиёева Гулрух Пулатовна. ОРГАНИЗАЦИЯ КАФЕДРЫ АНАТОМИИ ТМА В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ	100
Rakhmatullaev Elyorbek Abduvaliyevich. INFORMING, MONITORING, AND MANAGING OF THE HEMIS	101
Рахимов А.У., Халимбетов Г.С., Дадаев Х. РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ ВЫЕЗДНЫХ ЦИКЛОВ ПОВЫШЕНИИ КВАЛИФИКАЦИИ ВРАЧЕЙ	102
Sadikova S.I., Axmedov X.S. «ICHKI KASALLIKLARI» FANINI O'QITISHDA RAQAMLASHTIRISHNI O'RNI	102
Саломова Ф.И., Садуллаева Х.А., Тошматова Г.А. ТИББИЙ ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШДА ХОРИЖИЙ ҲАМКОРЛИК	103
Salomova F.I., Axmadaliyeva N.O., Sharipova S.A. TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ISLOHATLAR	103
Salomova F.I., Sharipova S.A., Axmadaliyeva N.O., Sadullaeva X.A., Abdukadirova L.K. ZAMONAVIY MA'RUZALARNING TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI	104
Субхонова М.Г. ФУНДАМЕНТАЛ ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА МЕНТАЛ ХАРИТА УСУЛИНИНГ ЎРНИ	104
Tavasharov B.N., Mahmatqulova A.Sh. MODERN VIEWS OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING CLINICAL SCIENCES	105
Таурова М.И., Хайитбоева М.Р., Исмаилова М.Х. УЛУЧШЕНИЕ УРОВНЯ ОБРАЗОВАНИЯ ПУТЕМ ВКЛЮЧЕНИЯ МАГИСТРАНТОВ КАФЕДРЫ «МЕДИЦИНСКОЙ РАДИОЛОГИИ» В ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС	105
Таурова М.И., Хайитбоева М.Р., Исламбекова М.А. РАСПРОСТРАНЕННОСТЬ НОВЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ В РАДИОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ В ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ	106
Tashkenbayeva U.A., Khashimov F.F., Mirodilova F.B., Aliyev A.Sh., Umarov J.M., Tojimurodov Kh.A., Abboskhonova F.Kh. TEACHING IN DERMATOVENEROLOGY INNOVATIVE APPROACH	106
Ташкенбаева Умида Алишеровна, Джураева Гулноза Тулкуновна. ВЛИЯНИЕ И РОЛЬ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОВЕНЬ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКИХ ВУЗОВ	107
Тошкенбаева У.А., Хасанова М.А. ЗАМОНОВИЙ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАЦИЯ	107
Тошметова Б.Р., Илхомова Х.А. МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ПО СПЕЦИАЛЬНОСТИ ПЕДИАТРИЯ	108
Тухтаева Н.Х., Каримов М.Ш. СХЕМА ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ ПРИ РАССПРОСЕ БОЛЬНЫХ НА КАФЕДРЕ ПРОПЕДЕВТИКИ ВНУТРЕННИХ БОЛЕЗНЕЙ	108



## ТИББИЙ ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШДА ХОРИЖИЙ ҲАМКОРЛИК

Саломова Ф.И., Садуллаева Х.А., Тошматова Г.А.

*ТТА, Атроф муҳит гигиенаси*

Олийгоҳларда таълимни сифатли бўлиши учун ҳамкорлик алоқаларини кучайтириш самарали восита ҳисобланади. Инсон саломатлигини сақлаш ОТМ битирувчиларини PhD ва магистратура дастурлари бўйича ўқитиш, олий таълим муассасалари ва қайта тайёрлаш ва малака ошириш марказлари ўқув жараёнларига юқори малакали хорижий олимлар, ўқитувчи ва мутахассисларни кенг жалб қилишда аҳоли саломатлигини сақлаш ва мустаҳкамлаш, касалликларнинг олдини олиш ҳамда аҳолининг узоқ йиллар давомида фаол умр кечиришини таъминловчи шароит яратишга ҳисса қўшишда ҳамкорликда ўқитиш муҳим аҳамиятга эга. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 июндаги “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларни мамлакатда амалга ошириладиган кенг қамровли ислохотларида фаол иштирокни таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбир тўғрисида”ги ПҚ- 3775 –сон қарорида ўқув жараёнига етакчи хорижий мутахассисларни жалб этиш ишлари ижросини таъминлаш мақсадида Тошкент тиббиёт академияси Атроф-муҳит гигиенаси кафедраси Жанубий Корея Республикасининг Корё Университети билан ҳамкорликда бир қанча ишларни амалга оширди.

**Мақсад:** Олий таълим муассасаларида таълим сифатини оширишда етакчи хорижий мутахассисларни иштироки самарадорлигини аҳамиятини ўрганиш.

**Олинган натижалар:** Тошкент тиббиёт академияси Атроф-муҳит гигиенаси кафедраси Корея Университети билан 2016 йилдан буён ҳамкорликда ишлар олиб бормоқда. 2017-2018 ўқув йилидан “Атроф муҳит ва инсон саломатлиги” магистратура мутахассислиги очилиши, ўқув жараёнига етакчи хорижий университетдан профессор-ўқитувчиларнинг жалб этилиши ҳамда магистр-талабаларнинг амалий кўникмаларни ўзлаштириши учун замонавий илмий-тадқиқот марказининг ташкил этилиши шулар жумласидандир. Шу давргача битирувчилар ўз мутахассислиги бўйича диплом ва Корея Университетининг сертификатлари билан тақдирландилар. Бундан ташқари талабалар томонидан ўз илмий-тадқиқот ишлари натижаларини йиллар давомида ташкил этилган 10 та конференцияда маърузалар билан тақдим этилди.

**Хулоса.** Етук ва малакали кадрлар тайёрлаш борасида ҳамкорлик ишлари кучайтириш, ОТМлари магистрант, ёш ўқитувчи ва илмий ходимларининг стажировка ўтиши, профессор-ўқитувчиларни қайта тайёрлаш ва малакасини оширишни ташкил қилиш; педагог кадрларнинг касб маҳорати сифати ва савиясини узлуксиз юксалтириш, хорижда педагог ва илмий ходимларнинг малакасини ошириш ва стажировкасини ўтказиш ўқув жараёнига юқори малакали хорижий олимлар, ўқитувчи ва мутахассисларни кенг жалб қилиш самарали восита эканлиги исботлади.

## ТА’ЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШДАГИ ISLOHATLAR

Salomova F.I., Axmadaliyeva N.O., Sharipova S.A.

*Toshkent tibbiyot akademiyasi, Aтроf muhit gigiyenasi kafedrası*

Har bir davlat o'z taraqqiyot yo'lini belgilar ekan, ta'lim sohasidagi islohotlarga ustuvor vazifa sifatida qaraydi.

Globallashuv davrining eng muhim masalalaridan biri hisoblangan ta'lim-tarbiya sohasini rivojlantirishga alohida urg'u berilmoqda. Zero, jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni ilm-fansiz yechish qiyin. Mamlakat kelajagi, inson hayotining barcha sohalarini rivojlantirish va amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati bevosita ta'lim va ilm-fan sohasidagi siyosatning samaradorligiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi ta'lim va ilm-fan ustuvorligini e'tirof etgan holda, ta'limning sifati va erkinligini ta'minlash, bu sohada davlat boshqaruvining samarali tizimini yaratish bo'yicha tizimli va keng doiradagi chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. So'nggi besh yilda ta'lim sohasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 95 ta Farmon va qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 222 ta qarorlari qabul qilindi. Har yili O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining katta qismi ijtimoiy xarajatlar, jumladan, ta'lim va ilm-fan uchun ajratiladi. 2021 yilda bolalar bog'chalari, maktab, kollej, texnikumlar va oliy o'quv yurtlarini loyihalashtirish, qurish, qayta ta'mirlash va jihozlash bo'yicha ishlarni moliyalashtirish uchun mamlakat byudjetidan 2,8 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratildi [<https://xabar.uz/talim/talim-sifati-va-talim-olish-imkoniyati>].

Shu sababli, keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yildagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sonli, 2017 yil 5 maydagi “O'zbekiston Respublikasida tibbiy ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PQ – 2956-sonli, 2018 yildagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatinı oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi PQ-3775-sonli, 2019 yildagi “Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PQ-4310-sonli qarorlari, 2019 yildagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli farmoni, 2021 yildagi “O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5117-sonli qarori, 2022 yildagi “2022 — 2026 yillarga



mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli farmonlari shular jumlasidan-dir. Aynan shunday islohatlar oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, oliy ta'lim muammolarini kompleks o'rganish hamda ilmiy tahlil qilish, ilg'or xorijiy tajribalarni amaliyotga joriy etish kabi vazifalarni ham belgilab bergani bilan ahamiyatlidir. Bu, o'z navbatida, ta'limda o'zaro integratsiya jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi.

## ZAMONAVIY MA'RUZALARNING TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI

Salomova F.I., Sharipova S.A., Axmadaliev N.O., Sadullaeva X.A., Abdukadirova L.K.

*Toshkent tibbiyot akademiyasi, Atrof muhit gigiyenasi kafedrasida*

**Ma'ruza** (lotin tilida lectio-o'qish) - biror bir ilmiy, siyosiy mavzu bo'yicha o'quv materialini og'zaki bayon etish. Ma'ruzalarning turli ko'rinishlardagi shakllari ta'lim jarayonida o'ziga xos yo'nalish kasb etib, talabada bilishning an'anaviy mantiqiy ketma-ketligini (qabul qilish, tushunish, uqish, fikrlash, qayta ishlash, mustahkamlash) hosil bo'lishiga olib ke-ladi. Shu sababli, oliy ta'limda o'qiladigan ma'ruzalarning sifati ta'lim sifatini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib qolmoqda. oliy ta'lim tashkiliy shakllarining tashkil etuvchi elementlari nomi qanday yangi shakl olmasin, baribir asosiy el-ementlar bo'lib ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, seminarlar, mustaqil ishlar va amaliyotlar bo'lib qolmoq-da va bular ichida ma'ruza talabalarni nazariy bilim olishlarida, amaliy ko'nikmalar hamda malakalarini shakllantirishlarida muhim o'rin tutmoqda.

Ma'ruza o'qiyotgan pedagog talabalarga "jonli" bilimni yetkazadi, ya'ni u mavzu bo'yicha axborot yoki ma'lumot ber-maydi, u olim, o'z sohasini egasi, targ'ibot qiluvchi notiq va auditoriyani to'liq his qiluvchi tarbiyachi sifatida chiqish qiladi. Aytish lozimki, hozirgi zamonaviy axborot va kommunikatsion vositalar ma'ruza o'rnini bosa olmaydi, fanning ilmiy va tar-biyaviy xususiyatlarini, auditoriya holatini, bilishning psixologik qonuniyatlarini, tinglovchi tomonidan eshitilgan ma'lumot-larni qayta ishlash imkoniyatlarini, tinglovchining dunyoqarashini, hissiyotini va e'tiqodini yangi axborot texnologiyalari imkoniyatlari bir vaqtda hisobga ola olmaydi.

Shu sababli hozirgi sharoitda ma'ruzalarning quyidagi xususiyatlari oshib bormoqda: **axborot berish, uzatish** (mavzu bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri axborot va ma'lumotlar beriladi); **motivatsion** (fanga, bilimga ehtiyoj, nazariyaga ishonch va o'rganiladigan mavzuning amaliy ahamiyatiga qiziqishni uyg'otish); **tashkiliy - yo'naltiruvchi** (manbalar va o'quv adabiyot-lariga yo'naltirish, mustaqil ishni tashkil etish bo'yicha maslahatlar); **kasbiy-tarbiyaviy** (kasbga sadoqat ruhida tarbiyalash, kasbiy etika va maxsus qobiliyatlarni rivojlantirish); **metodologik** (tushuntirish, tahlil qilish, interpretatsiya va oldindan bil-ishning ilmiy uslublari); **baholash va rivojlantiruvchi** (fikrlash, idrok qilish, munosabat bildirish, baholash qobiliyatlarini shakllantirish).

Ma'ruzaning yo'naltiruvchi hamda mustaqil ta'limga ehtiyoj oshishi bilan metodologik funktsiyasining roli ham oshib bormoqda. Yuqoridagilarga bog'liq holda ma'ruzachi o'z ma'ruzasini rejalashtirishda ma'ruzaning funktsiyasini birlamchi deb olishi muhim hisoblanib, ma'ruza sifati hamda samaradorligini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda talaba hozirgi axborotlar makonida zarur va kerakli ma'lumotlarni mustaqil ola olmaydi, u adashi-shi mumkin, ma'ruza unga yo'l ko'rsatadi. Lekin, ma'ruza eski an'anaviy usulda mavzu materiallarni "o'qib berish" bo'lib qol-masligi kerak.

## ФУНДАМЕНТАЛ ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА МЕНТАЛ ХАРИТА УСУЛИНИНГ ЎРНИ

Субхонова М.Г.

*Toshkent tibbiyot akademiyasi, Odam anatomiyasi va OXTA kafedrasida Toshkent*

**Илмий ишнинг долзарблиги.** Ҳар бир талабани юқори малакали, рақобатбардош мутахассис кадрлар тайёрлаш, уларнинг касбий маҳоратини такомиллаштириш, замон талаби даражасида тадбиркорлик қобилиятини шакллантириш, янги педагогик технологиялар билан қуроллантириш ва улардан бири булган ментал харита усулини куллашни ургатиш.

**Тадқиқотнинг мақсади.** Анатомиа фанида эслаб қолиш қобилиятини ошириш учун ментал харита усулини қўллаб талабаларнинг билим даражасини ошириш ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари ҳақида маълумотларга эга бўлиш.

**Тадқиқот материаллари.** Харита яратиш учун рангли қаламлар, маркерлар ва оқ қоғоз керак бўлади. Бунда асосий ғоя, муаммо ёки сўз марказда жойлаштирилади ва 1, 2, 3 тармоқларга бўлинади. Ҳар бир ғоя ўз рангига эга бўлиши керак. Яхши эслаб қолиш ва ассимиляция қилиш учун расмлардан фойдаланиш тавсия этилади.

**Тадқиқот натижалари.** Ментал харита-бу инсонга катта ахборот оқими билан курашиш, уни бошқариш ва уни тузишга имкон берувчи усул. Афзалликлари: Вақтни тежаш; Эслаб қолиш қобилиятини ошириш; Маълумотларни яхшироқ тушуниш ва англаш. Усул муаллифи Тони Бюзен 3 та кўрсатмани қўллайди: «Қабул қилинг»-аввал интеллект хариталарини яратиш учун барча қоида ва кўрсатмалар ўрганилади. «Қўлланг»-бу технология ёрдамида матн ва ахборотларни асосий тушунча остида бирлаштирилади. «Мослашинг»-бу техникани ўзингиздан